

**ISLOM TARAQQIYOT BANKINING MABLAG'LARINI  
TADBIRKORLIK LOYIHALARIGA YO'NALTIRISH**

*Sadirdinov Oybek Saydamirovich*

*O'zbekiston Respublikasi Bank moliya akademiyasi Loyiha boshqaruvi*

*(Project Management) LB 24-15 guruh magistranti*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Islom taraqqiyot bankining (ITB) faoliyati, uning asosiy moliyalashtirish tamoyillari hamda O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlarda tadbirkorlikni rivojlantirishdagi o'rni tahlil qilingan. Tadqiqotda ITB mablag'larining kichik va o'rta biznes subyektlariga yo'naltirilishining iqtisodiy samaradorligi, moliyaviy qo'llab-quvvatlash shakllari, jumladan, mushoraka, murabaha va ijara ga asoslangan moliyalashtirish mexanizmlari o'r ganilgan. Shuningdek, maqolada ITB bilan hamkorlikda amalga oshirilgan muvaffaqiyatli tadbirkorlik loyihalari misolida mazkur bank mablag'larining innovatsion faoliyat, ishlab chiqarish va eksport salohiyatini oshirishga xizmat qilishi yoritib berilgan. Xulosa qismida esa Islom moliyasi asosidagi moliyalashtirish mexanizmlarini milliy amaliyotga tatbiq etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ilgari surilgan.

**Kalit so'zlar:** Mushoraka, Mudoraba, ijara, ribo, fatvo

**Аннотация:** В данной статье рассматривается деятельность Исламского банка развития (ИБР), его основные принципы финансирования, а также роль в развитии предпринимательства в развивающихся странах, таких как Узбекистан. Исследуются экономическая эффективность направления средств ИБР субъектам малого и среднего бизнеса, формы финансовой поддержки, включая механизмы муширака, мурабаха и иджара. Также на примере успешно реализованных совместных проектов раскрывается вклад ИБР в развитие инновационной деятельности, производства и экспортного потенциала. В заключении статьи

представлены предложения и рекомендации по внедрению исламских финансовых инструментов в национальную практику финансирования предпринимательства.

**Ключевые слова:** *Mushoraka, Mudoraba, Ijara, Ribo, Fatvo.*

**Abstract:** This article examines the activities of the Islamic Development Bank (IDB), its fundamental financing principles, and its role in supporting entrepreneurship in developing countries such as Uzbekistan. The study evaluates the economic efficiency of channeling IDB funds toward small and medium-sized enterprises, as well as the financial support instruments, including mechanisms such as musharakah, murabaha, and ijarah. Moreover, the paper highlights successful entrepreneurial projects implemented in cooperation with the IDB, emphasizing how the bank's resources contribute to innovation, production development, and the enhancement of export potential. In the conclusion, the article puts forward proposals and recommendations for applying Islamic finance mechanisms within national financing practices.

**Keywords:** *Musharakah, Mudarabah, Ijarah, Riba, Fatwa.*

## **Kirish**

Bugungi kunda global iqtisodiyotda barqaror rivojlanishni ta'minlash, yangi ish o'rinalarini yaratish va ijtimoiy farovonlikni oshirishda tadbirkorlik faoliyatining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik va o'rta biznes subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali iqtisodiy faollikni kuchaytirish muhim vazifalardan biridir. Shu nuqtayi nazardan, xalqaro moliyaviy institutlarning, xususan, Islom taraqqiyot bankining (ITB) bu boradagi faoliyati alohida e'tiborga loyiqidir.

ITB islom moliyasi tamoyillari asosida faoliyat yurituvchi xalqaro moliya instituti bo'lib, a'zo mamlakatlarda iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotni rag'batlantirish,

infratuzilmani rivojlantirish va tadbirkorlik muhitini yaxshilashga ko'maklashib kelmoqda. Bank tomonidan ko'rsatilayotgan moliyaviy ko'mak vositalari, xususan, mushoraka, mudoraba, ijara kabi islomiy moliyaviy instrumentlar tadbirkorlik subyektlari uchun muqobil va adolatli moliyalashtirish imkoniyatini yaratadi.

Mazkur maqolada Islom taraqqiyot banki mablag'larining tadbirkorlik loyihibariga yo'naltirilishi, bu yo'nalishdagi amaliy tajriba va moliyalashtirish mexanizmlari, shuningdek, ularning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilinadi. Shu bilan birga, ITB bilan hamkorlikni kengaytirish orqali milliy tadbirkorlik infratuzilmasini rivojlantirish imkoniyatlari ham ko'rib chiqiladi.

### **Muhokama va natijalar**

Islom taraqqiyot banki (ITB) 1975-yilda tashkil etilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi – islomiy tamoyillar asosida a'zo davlatlarning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko'maklashishdir. Bankning ustuvor yo'nalishlaridan biri – barqaror iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatiga sarmoya yo'naltirish orqali yangi ish o'rnlari yaratish va aholi farovonligini oshirishdir.

ITB moliyaviy faoliyatida foizli kreditlash o'rniga, sheriklik asosida foyda olish, aktivlarga asoslangan moliyalashtirish va ijtimoiy adolatga tayanish tamoyillari ustuvor hisoblanadi. Bank tomonidan ko'plab infratuzilma, energetika, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash va ta'lim loyihalari qo'llab-quvvatlangan bo'lsa-da, so'nggi yillarda kichik va o'rta biznes subyektlarini moliyalashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Islom taraqqiyot banki global moliya sohasida noyob o'rin egallaydi. Bankning asosiy maqsadi – islomiy moliya prinsiplariga asoslangan holda rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy-ijtimoiy loyihalarni qo'llab-quvvatlashdir. ITB tomonidan taqdim etilayotgan moliyaviy instrumentlar nafaqat investitsiya mablag'larini yo'naltiradi, balki bu mablag'larning milliy iqtisodiyotdagi ko'lamenti kengaytirish va innovatsion jarayonlarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

**1-jadval**

**«Kichik va o'rta korxonalarining iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash» loyihasining asosiy texnik-iqtisodiy parametrlari bo'yicha moliyalashtirish manbalari**

mln AQSh dollarida

Komponentlar nomlari	ITB	ITB (Rivojlanish uchun islom birdamlik jamg'armasi nomidan)	ITB Jami	Loyihada ishtirok etuvchi moliya tashkilotlari	O'zbekiston Respublikasi ulushi (soliq, bojxona imtiyozlari va ijtimoiy to'lovlar ko'rinishida)	Jami
A-komponent. Moliyalashtirish va kafillik	30.00	7.50	37.50	60.00*	-	97.50
B-komponent. Biznes-injenering va salohiyatni oshirishni ko'llab-quvvatlash	-	1.75	1.75	-	0.14	1.89
S-komponent. Loyihani boshqarish va	-	0.43	0.43	-	0.10	0.53

muvofiqlashtiris h						
D-komponent. Audit xizmatlari	-	0.12	0.12	-	0.02	0.14
Ko'zda tutilmagan xarajatlar	-	0.10	0.10		-	0.10
Narxlar o'zgarishi bilan kelib chiqishi mumkin bo'lgan xarajatlar	-	0.10	0.10		0.04	0.14
<b>JAMI XARAJATLAR</b>	<b>30.0 0</b>	<b>10.00</b>	<b>40.0 0</b>	<b>60.00</b>	<b>0.30</b>	<b>100.3 0</b>

Islomiy moliya tizimi odatdag'i an'anaviy bank tizimidan tubdan farq qiladi. ITB tomonidan tadbirdorlik subyektlariga taklif etiladigan moliyaviy vositalarning asosiy turlari quyidagilar:

- **Mushoraka (hamkorlik):** Bank va tadbirdor kapital qo'shib, birgalikda loyiha yuritadi va foyda (yoki zarar) ulushi oldindan kelishilgan nisbatda taqsimlanadi.
- **Mudoraba (ishonchli boshqaruvi):** Bank sarmoya beradi, tadbirdor esa loyihani yuritadi. Foyda kelishilgan ulushda, zarar esa faqat bank zimmasida bo'ladi.
- **Ijara (ijaraga berish):** Bank biror aktivni sotib olib, tadbirdorga ijara beradi. Bu, ayniqsa, uskunalar yoki binolarni moliyalashtirishda qo'llaniladi.

Ushbu vositalar orqali ITB foizsiz, adolatli va xavfsiz moliyaviy yordam

ko'rsatishni maqsad qiladi. So'nggi yillarda ITB O'zbekistonda ham qator tadbirkorlik va infratuzilma loyihalarini qo'llab-quvvatlagan. Masalan, **2021–2024 yillar davomida** ITB ishtirokida amalga oshirilgan qishloq xo'jaligini rivojlantirish loyihalari, zamonaviy sug'orish tizimlari joriy etilishi, shuningdek, kichik biznes subyektlari uchun aylanma mablag'lar ajratilishi – bank faoliyatining muvaffaqiyatli misollaridan hisoblanadi.

Shuningdek, bank tomonidan taqdim etilayotgan texnik yordam, konsalting xizmatlari va trening dasturlari orqali tadbirkorlik madaniyatini oshirishga ham katta hissa qo'shilmoqda.

### **Xulosa va takliflar**

Islom taraqqiyot bankingin tadbirkorlikni rivojlantirishdagi roli ayniqsa rivojlanayotgan davlatlar uchun katta ahamiyatga ega. Bank tomonidan taklif etilayotgan moliyaviy vositalar faqatgina iqtisodiy emas, balki ijtimoiy adolat va halollik tamoyillariga ham tayanadi. O'zbekiston sharoitida ITB bilan hamkorlikni yanada kuchaytirish, mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish va milliy banklar orqali islomiy moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish dolzARB hisoblanadi.

### **Takliflar:**

- Milliy qonunchilikda islomiy moliyaviy instrumentlarni kengroq tatbiq etish uchun huquqiy asoslarni mustahkamlash.
- Tijorat banklari islomiy moliyalashtirish bo'yicha maxsus bo'limlar tashkil etishi.
- ITB bilan qo'shma investitsiya fondlarini tashkil etish orqali kichik biznes subyektlarini keng ko'lamda moliyalashtirish.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

#### **1. Me'yoriy-huquqiy hujjalalar**

1. «O'zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to'g'risida» gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 1995-yil 26-dekabr.

2. O'zbekiston Respublikasi «Bank va bank faoliyati to'g'risida»gi Qonuni 1996-yil 25-aprel.

3. O'zbekiston Respublikasining «Bank siri to'g'risida»gi Qonuni 2005yil 25-aprel.

4. O'zbekiston Respublikasining “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni 2012-yil 2-may .

5. O'zbekiston Respublikasining 2012-yil 26-apreldagi “Oilaviy tadbirkorlik to‘g‘risida”gi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2012 y.

6. O'zbekiston Respublikasining «Mikromoliyalash to‘g‘risida»gi Qonuni. 2006-yil 15-sentabr.

7. “Kichik tadbirkorlik subyektlarini milliy valutada kreditlash tartibi to‘g‘irisida” gi Nizom2013-yil 27-dekabr.

8. “Kichik va xususiy tadbirkorlikni mikrokreditlash tizimini yanada kengaytirish va soddalashtirish chora tadbirlari to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 fevraldagagi Qarori.

9.“Kichik tadbirkorlik subyektlarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash mexanizmini takomillashtirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni, 2003- yil, 23- dekabr.

10. “Kichik tadbirkorlikni rivojlantirish kafolat jamg‘armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-apreldagi Qarori.

11. “Tadbirkorlik subyektlari va keng aholi qatlamiga mikrokreditlar ajratish tizimini yanada soddalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 17 martdagи PQ-2844 Qarori.

12. Islom taraqqiyot banki ishtirokida «Kichik va o‘rta korxonalarning iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash» loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.12.2024 yildagi 903-sон